

**AFG‘ON ADABIYOTIDA AYOL OBRAZINING TARIXIY ILDIZLARI**

**Qasemi MAWLUDDIN,**

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika  
universiteti 2-bosqich magistranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878088>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada afg‘on adabiyotidagi ayollar obrazining tarixiy ildizlari aniqlandi. Eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha tasvirlangan ayollar obrazining muhim jihatlari maqolada ochib berildi.

**Tayanch so‘zlar:** ruhiyat tasviri, dialog, monolog, konflikt, bosh g‘oya, ayol, yor, ojiza

Afg‘on adabiyotida ayol obrazining tarixiy ildizlari juda murakkab va ko‘p qirralidir. Ayollar tasviri Afg‘onistonning tarixiy, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu obrazlarning shakllanishi asosan erkak yozuvchilarning ijtimoiy va siyosiy qarashlariga, shuningdek, mamlakatda yuz berayotgan muhim voqealar va urushlar ta’siriga asoslangan. Afg‘on adabiyotida ayollarning tarixiy tasviri qadim zamonlardan boshlab, hozirgi kungacha turli shakllarda namoyon bo‘ldi. Qadimiy davrlar va ayollarning adabiyotdagi o‘rni afg‘on adabiyotining qadimiy davrlarida ayollar tasviri ko‘proq mifologik va diniy kontekstda mavjud edi. Afg‘onistonning qadimiy tarixida, xususan, zardushtiylik va boshqa mahalliy diniy an‘analarda, ayollarning roli muhim bo‘lgan. Ayollar ko‘pincha farovonlik, urug‘ning davomiyligi, ota-bobolarning hurmatini saqlash kabi ijtimoiy mas’uliyatlarga ega sifatida tasvirlanardi.

Afg‘on adabiyoti o‘z ildizlarini qadimiy fors-tojik adabiyoti bilan uzviy bog‘liq holda shakllantirgan. Afg‘oniston hududida yashagan xalqlar qadimdan og‘zaki ijod, epos, doston, qo‘shiq va ertaklar orqali o‘z dunyoqarashini ifoda etgan. Bu asarlarda ayol obrazlari ko‘pincha an‘anaviy, ma’naviy poklik timsoli, sadoqatli yor, mehribon ona yoki fidoiy muhabbat vakili sifatida gavdalantirilgan. Biroq bu obrazlar ko‘proq idealistik va romantik xarakterda tasvirlangan bo‘lib, ularning shaxsiy dunyosi, jamiyatdagi o‘rni, huquqlari yoki erkinligi haqida ko‘p ma’lumot berilmagan.

Afg‘on xalq og‘zaki ijodida ayol siymosi ko‘p hollarda ikkinchi darajali obrazda namoyon bo‘ladi. Misol uchun, qadimiy xalq dostonlarida ayol ko‘proq go‘zallik, vafo, sabr-toqat timsoli sifatida tilga olinadi. Bunday obrazlar orqali jamiyatdagi ayolga nisbatan shakllangan an‘anaviy qarashlar mustahkamlangan. Bu bosqichda ayol ko‘proq yetakchi qahramonga yor sifatida tasvirlanadi, ularning ichki olami, ruhiyati asarlarda kam yoritilgan.

Biroq, XIII – XIV asrlarda yashab ijod qilgan so‘fiy shoirlar, xususan Jaloliddin Rumi, Sanoiy, Attor va boshqa ijodkorlar asarlarida ayol siymosi ichki ruhiy go‘zallik, ilohiy muhabbat timsoli sifatida yangicha talqinda berila boshlaydi. Bu shoirlarning asarlarida ayol endi faqatgina nafislik va muhabbat timsolida emas, balki ilohiy haqiqatga yetishish yo‘lida yoritilgan timsolga aylanadi. Bu obrazlar ramziy va falsafiy xarakter kasb etadi.

XVIII – XIX asrlar afg‘on adabiyotida ham katta o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Ayniqsa, bu davrda milliy mustaqillik g‘oyalari, tashqi bosqinchilarga qarshi kurash, diniy va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash jarayonida ayol siymosi yana tasvir obyektiga aylandi. Ammo bu davrda ham ayol obrazlari ko‘pincha jamiyat tomonidan belgilangan qadriyatlar doirasida qolgan. Ular jasoratli ona, fidoyi xotin, vatanparvar qiz sifatida tasvirlanadi, biroq shaxsiy istaklari va ichki kechinmalari ko‘p hollarda ochib berilmaydi.

Afg‘on adabiyotining bu ilk bosqichida yozuvchi va shoirlar asosan erkaklar bo‘lganligi sababli, ayol obrazlari ko‘proq erkak mualliflar nigohida, ular tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy voqealarga asoslangan holda yaratilgan. Shunday bo‘lsa-da, bu davr obrazlarini tahlil qilish orqali keyingi bosqichlarda yuzaga kelgan o‘zgarishlarni, ayniqsa, ayollar tomonidan yozilgan asarlardagi yangiliklarni anglash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Islom dini afg‘on jamiyatida markaziy rol o‘ynaganligi sababli, diniy manbalar va Qur‘on asosida shakllangan axloqiy me‘yorlar adabiyotga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatgan. Diniy axloq nuqtayi nazaridan ayollar ko‘proq uy-ro‘zg‘or ishlari, erkakka itoatkorlik, ibodat va hijob bilan bog‘liq tasvirlarda aks etgan. Shu sababli ko‘p asarlarda ayol obrazlari ijtimoiy hayotdan chetda turgan, orqa fonda mavjud bo‘lgan personajlar sifatida namoyon bo‘lgan.

Islom davrida ayollar va afg‘on adabiyoti islomning Afg‘onistonga kirishi (VII – VIII asrlar) bilan birga, ayollar tasviri adabiyotda yangi bir bosqichga o‘tdi. Islom dini ayolning roli va hayotdagi o‘rniga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Qur‘on va islom an‘analari, ayollarning muqaddas roli va ahamiyatini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, Afg‘onistonning patriarxat jamiyatida, ayollarga nisbatan kuchli cheklovlar mavjud edi. Bu davrda adabiyotda ayol obrazining tasviri ko‘pincha zavjalar, onalar, ayollik baxti va oilaviy sadoqat bilan bog‘liq bo‘lgan. Islomdagi ayolning roli, turmush o‘rtoq sifatida eriga sadoqatli va bolalarni tarbiyalovchi ona sifatida aks ettirilgan. Afg‘on adabiyotida, ayniqsa, shoirlar va yozuvchilarning asarlarida ayollar, odatda, erining orzu-istaklariga mos keladigan turmush o‘rtoq sifatida tasvirlanadi.

Afg‘on adabiyotida ayollar obrazining asosiy o‘zgarishi, Sovet Ittifoqining Afg‘onistonga aralashuvi (1979 – 1989) bilan boshlandi. Sovet davrida

Afg‘onistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Sovet ittifoqining liberallashtirish siyosati, ayollarning huquqlarini ta’minlash, ta’lim olish va mehnat bozoriga kirish kabi masalalarda ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Ayollarni ta’lim olishga undash va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish, adabiyotda ham aks etdi. Sovet davrida ayollarni tasvirlashda ko‘plab yangi tendentsiyalar yuzaga keldi. Ayollar ko‘proq ijtimoiy va siyosiy rolda, erkin va mustaqil shaxslar sifatida tasvirlana boshladi. Sovet adabiyotining ta’siri ostida, Afg‘onistondagi ayollarning yangi tasvirlari, o‘z taqdirini belgilashga intiluvchi, intellektual va siyosiy faol shaxslar sifatida paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, Sovet davri adabiyotida ayollar ko‘proq huquqlarini talab qiluvchi va jamiyatdagi o‘zgarishlarga qo‘shiluvchi yangi obrazlar sifatida ko‘rsatish boshlangan.

1990-yillarda urush va talibon davri: Ayollarga nisbatan repressiya 1990-yillarning boshlarida Sovet Ittifoqi chekinishi va Afg‘onistonda fuqarolar urushi boshlanishi, shuningdek, Tolibonning hokimiyatga kelishi, ayollarga nisbatan qo‘llanilayotgan repressiyani kuchaytirdi. Tolibon davrida (1996 – 2001) ayollarning huquqlari va erkinliklari cheklangan va ular jamiyatda faol ishtirok etishdan mahrum bo‘lgan. Bu davrda ayollarni tasvirlash, ko‘pincha zulm, tahdid va erkinlikdan mahrum bo‘lish bilan bog‘liq bo‘lgan.

Tolibon hukumati davrida ayollarning ta’lim olishi, ishga joylashishi va jamiyatda faol ishtirok etishidan mahrum qilish, adabiyotda ayollarning zulm va tazyiqqa qarshi kurashayotgan obrazlarini yaratilishiga turtki bo‘ldi. Ayollarni bu davrda ko‘plab adabiyotlarda faqat o‘z xaq-huquqlarini qaytarish uchun kurashayotgan, o‘z erkinligini qo‘lga kiritish uchun o‘z taqdirini belgilashga intilayotgan shaxslar sifatida tasvirlanadi.

Zamonaviy afg‘on adabiyotida ayollar obrazining transformatsiyasi 2001-yilgi NATO aralashuvi va Afg‘onistonda yangi hukumat tuzilishi bilan ayollar obrazining tasvirida yana bir o‘zgarish yuz berdi. Ayollar, endi jamiyatda ta’lim olish, siyosiy faoliyatda ishtirok etish, iqtisodiy mustahkamlikka erishish kabi huquqlarga ega bo‘lishga harakat qilishdi. Bu davrda, ayollar ko‘proq erkin va mustaqil shaxslar sifatida adabiyotda aks etdi. Zamonaviy afg‘on adabiyotida ayollar tasviri ko‘proq go‘zal, kurashuvchan va kuchli shaxs sifatida shakllandi. Ayollar, urushdan va siyosiy beqarorlikdan charchagan jamiyatda yangi avlodni tarbiyalash, millatni tiklashga intilgan shaxslar sifatida ko‘rsatiladi. Ularning obrazlari endi faqat oilaviy vazifalar bilan cheklanmay, balki o‘z taqdirini belgilashga qodir mustaqil, kuchli va siyosiy faol shaxslar sifatida ifodalanadi.

Afg‘on adabiyotidagi ayollar obrazining tarixini tahlil qilish, adabiyotni faqat badiiy ifodalar nuqtayi nazaridan emas, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy

# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

o‘zgarishlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini ham ko‘rsatadi. Ayollarning adabiyotdagi o‘rni o‘zgarib borgan. Ayollarning tasvirlanishi, ularning jamiyatdagi ijtimoiy roli va adabiyotda ifodalangan gender tengsizlik masalalari orqali nafaqat o‘zlarining hayotini, balki kengroq jamiyat va madaniyatning o‘zgarishini aks ettiradi.

Afg‘on adabiyotida ayollar obrazining boshlang‘ich davri, albatta, klassik adabiyotdan boshlanadi. Bu davrda ayollar ko‘pincha yengilmas va an’anaviy oilaning markazi sifatida tasvirlangan. Klassik afg‘on she’riyatida ayollarni tasvirlashda ko‘proq ularning mas’uliyatlari, farzandlarga bo‘lgan mehr-muhabbati va oila doirasidagi roli yoritilgan. Shu bilan birga, ayollarning o‘zini ifodalash imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, ularning his-tuyg‘ulari va orzulari faqat oila ichidagi vazifalarni bajarishda, erkakning qarashlariga bo‘ysunishda ifodalangan. Tolibon davri afg‘on adabiyotida Tolibonning hokimiyatga kelishi bilan Afg‘onistonning ijtimoiy va siyosiy manzarasida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Ayollar uchun huquqlarning to‘liq cheklanishi, o‘zlarini jamoatchilikda ifodalashga bo‘lgan imkoniyatlarning kamayishi, adabiyotda ham o‘z aksini topdi. Bu davrda yozilgan asarlarda ayollar ko‘proq faqat uyda, oilada mavjud bo‘lgan mavjudot sifatida tasvirlangan. Ayollarning ijtimoiy va siyosiy mavqeyi beqaror bo‘lib, ularning qadr-qimmatini tizim tomonidan rad etilgan. Afg‘on adabiyotida aynan bu davrda ayollar obrazining passiv, qarshi turuvchi va o‘zgarimas ravishda tasvirlangan holatlari ko‘p uchraydi. 2001-yilda Tolibonning hokimiyatdan tushishi bilan, Afg‘onistonda ayollarning huquqlari bo‘yicha yangilanishlar boshlanadi. Bu davrda afg‘on adabiyotida ayollar obraziga nisbatan yangi, yanada faollashgan va harakatchan tasvirlar kiradi. Xolid Husayniy, Atiq Rahimiy kabi yozuvchilar ayollarni faqat oila doirasidan chiqib, jahon bilan aloqada bo‘lgan shaxslar sifatida tasvirlashni boshladilar. Bu adabiyot asarlarida ayollar endi o‘z huquqlari va erkinliklari uchun kurashayotgan, o‘z orzulariga yetishish uchun yangi imkoniyatlar izlayotgan shaxs sifatida ko‘rsatilgan. Tolibon davrida ayollar obrazining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan yozuvchilarning badiiy yondoshuvi va ijodi muhim ahamiyat kasb etadi. Xolid Husayniyning “A Thousand Splendid Suns’ ( ming quyosh shu’lasi)” romani ayollarning oila ichidagi rollari, kurashlari va o‘zini topish jarayonlarini tasvirlaydi. Shu bilan birga, Atiq Rahimiyning “The Patience Stone ( Sabr toshi)” romani orqali afg‘on ayollarining ichki dunyosini va ularning patriarxat tizimidagi azoblarini o‘rganadi. Afg‘on adabiyotidagi ayollar obrazining yana bir muhim jihati - ayollarning urushdan keyingi davrda o‘z orzularini amalga oshirish yo‘lida o‘tkazgan kurashi va ijtimoiy o‘zgarishlarga ta’sirini tasvirlashga harakat kuchaygan. Bunday asarlar albatta afg‘on adabiyotida ayollar obrazining rang-barangligini oshirishga xizmat qildi.

# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
2. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. [https://oriens.uz/media/conferencearticles/5\\_ORAZBAYEVA\\_Mahbuba\\_28-32.pdf](https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf).
3. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p. [https://www.researchgate.net/publication/375649608\\_Issues\\_of\\_Distribution\\_of\\_Bear\\_Image\\_in\\_Uzbek\\_Novels](https://www.researchgate.net/publication/375649608_Issues_of_Distribution_of_Bear_Image_in_Uzbek_Novels).
4. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
5. Omanova, M. (2024). Importance of voice in expressive reading. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
6. Dilafruz, Kalandarova. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
7. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, <https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610>
8. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. [https://oriens.uz/media/conferencearticles/5\\_ORAZBAYEVA\\_Mahbuba\\_28-32.pdf](https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf).
9. Burkhanova, F. "The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi." *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation* 32.3: 32467-32472.
10. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).